

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI O'RGATISHNING SAMARALI ZAMONAVIY METODLARI

Hakimova Sabrina Muhammadi qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kura talabasi

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz tili grammatikasini o'rgatishning samarali zamonaviy metodlari tahlil qilinadi. Unda kontekst asosida o'qitish, modernizatsiyalangan deduktiv metod, raqamli texnologiyalar va spiral yondashuvning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritiladi. Ushbu metodlar grammatikani ongli, tizimli va kommunikativ asosda o'zlashtirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili grammatikasi, samarali o'qitish metodlari, kontekst asosida o'qitish, deduktiv metod.

Kirish

Bugungi kunda ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun uni o'rganish jarayoni nafaqat lug'at boyligini oshirish, balki grammatikani to'g'ri va samarali qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Grammatikani o'zlashtirish esa ko'plab o'quvchilar uchun murakkab jarayon hisoblanadi, chunki u qoidalar, shakllar va istisnolardan iborat bo'lib, faqat yodlash orqali uzoq muddatli natija berishi qiyin. Shu bois, samarali metod va yondashuvlarni qo'llash ingliz tili o'qitish jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishida muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, grammatikani o'rgatishda nafaqat an'anaviy metodlar, balki interaktiv, kontekstual, vizual va raqamli vositalarga asoslangan yondashuvlar samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Samarali o'qitish usullari o'quvchilarda bilimni mustahkamlashtiradi, muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini oshiradi. Shu sababli, zamonaviy pedagogika grammatikani faqat qoidalar to'plami sifatida emas, balki amaliy, ongli va mantiqiy kontekst bilan bog'langan vosita sifatida o'rgatishni tavsiya qiladi. Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasini o'rgatishda samarali hisoblangan bir qator metod va yondashuvlar, jumladan, kontekstual o'qitish, spiral yondashuv, deduktiv va induktiv metodlar, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosidagi o'qitish nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi bilan tahlil qilinadi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimni tizimli o'zlashtirish va tilni ongli ravishda qo'llash imkonini yaratadi.

Tahlillar va metodlar

Ingliz tili grammatikasini o'rgatishning ko'plab usullari mavjud, lekin so'nggi yillarda eng samarali deb topilgan metodlar ayniqsa o'quvchilarning



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

faol ishtiroki, bilimni tizimli o'zlashtirish va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladigan yondashuvlardir. Shu jumladan, kontekst asosida o'qitish, modernizatsiyalangan deduktiv metod, raqamli texnologiyalar asosidagi o'qitish va spiral yondashuv eng ko'p qo'llaniladigan va samarali usullar sifatida ajralib turadi. Bulardan biri kontekst asosida o'qitish (Contextual Teaching) ingliz tili grammatikasini alohida qoida shaklida emas, balki real nutqiy vaziyat, matn yoki kommunikativ holat ichida o'rgatishga asoslanadi. Bu yondashuvda grammatik shakl va uning ma'nosi bir-biridan ajratilmaydi. O'quvchi avval shaklni kontekstda ko'radi, ma'nosini tushunadi, so'ng umumiy qoida haqida xulosa chiqaradi. Natijada grammatika mexanik yodlash emas, balki ongli o'zlashtirish jarayoniga aylanadi. Masalan, Present Perfect zamonini o'rgatishda o'qituvchi avval quyidagi dialogni beradi:

A: Have you ever visited Samarkand?

B: Yes, I have been there twice.

A: Really? I have never been there.

Bu yerda o'quvchilar "have visited", "have been", "have never been" shakllarini ko'radi. O'qituvchi darhol formulani bermaydi. Avval savol beradi: bu gaplar qachon ishlatilgan? Aniq vaqt aytilganmi? O'quvchilar tushunadi: bu tajriba haqida gapirganda ishlatiladi. Shundan keyin umumlashtiriladi: have/has + V3 shakli tajriba va natijani ifodalash uchun ishlatiladi. Bu yerda qoida kontekstdan kelib chiqadi.

Yoki Past Simple mavzusini olaylik. O'qituvchi qisqa hikoya beradi:

"Yesterday I woke up late. I missed the bus and went to school by taxi. I met my friend and we had lunch together."

O'quvchilar fe'llarni ajratadi: woke up, missed, went, met, had. Savol beriladi: bu harakatlar qachon sodir bo'lgan? Javob: kecha. Shundan so'ng o'quvchilar fe'llarning ikkinchi shakli ishlatilganini aniqlaydi. Qoida tabiiy ravishda shakllanadi: o'tgan zamonda fe'ling 2-shakli qo'llanadi.

Present Continuous mavzusida esa rasmi kontekst samarali. Masalan, oilaviy sahna tasvirlangan rasm ko'rsatiladi. O'quvchilar quyidagi gaplarni tuzadi:

The mother is cooking dinner.

The children are watching TV.

The father is reading a newspaper.

Shundan so'ng savol: nega fe'lga -ing qo'shildi? O'quvchilar tushunadi: hozir sodir bo'layotgan harakatni ifodalash uchun. Qoida keyin tizimlashtiriladi: am/is/are + verb + ing.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, kontekst asosida o'qitishda jarayon quyidagicha kechadi: avval vaziyat yoki matn beriladi, keyin o'quvchi shaklni kuzatadi, ma'noni anglaydi, so'ng qoida umumlashtiriladi va nutqda qo'llanadi. Bunday yondashuv grammatikani sun'iy formuladan real kommunikativ vositaga aylantiradi. Natijada o'quvchilar nafaqat grammatik tuzilmani biladi,



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

balki uni qaysi vaziyatda, qanday ma'noda ishlatishni ham tushunadi. Bu esa ingliz tilida erkin va ongli muloqot qilishga zamin yaratadi.

Samarali metodlardan yana biri bu deduktiv metodning modernizatsiyalangan shaklidir. Bunda an'anaviy "qoida → mashq" modelini saqlagan holda, uni vizual va interaktiv vositalar bilan boyitishga asoslanadi. An'anaviy deduktiv yondashuvda o'qituvchi avval grammatik qoida va formulani tushuntiradi, so'ng o'quvchilar shu qoida asosida mashqlar bajaradi. Zamonaviy talqinida esa qoida berish jarayoni yanada tizimli, ko'rgazmali va mantiqiy asosda tashkil etiladi. Bugungi kunda murakkab grammatik tuzilmalarni tushuntirishda jadval, taqqoslovchi sxema, infografika va vaqt chiziqlari (timeline) keng qo'llanilmoqda. Bu vositalar o'quvchiga grammatik hodisani nafaqat eshitish, balki ko'rish orqali ham idrok etish imkonini beradi. Natijada abstrakt qoida aniq vizual modelga aylanadi. Masalan, zamon shakllarini tushuntirishda vaqt chizig'i qo'llaniladi. Past Simple o'tmishda tugallangan harakat sifatida alohida nuqta bilan, Present Perfect esa o'tmishdan hozirgacha bog'langan jarayon sifatida tasvirlanadi. Shundan so'ng qoida formulasi beriladi va qisqa kontekstli gap orqali mustahkamlanadi: "Two years ago, the company launched a new product." "The company has improved the product since then." Bu yerda vizual tayanch zamonlar o'rtasidagi mantiqiy farqni tez anglashga yordam beradi. Shuningdek, Passive Voice kabi mavzularda faol va majhul nisbat sxema orqali ko'rsatiladi: harakat yo'nalishining subyektdan obyektga yoki aksincha o'zgarishi grafik tarzda tasvirlanadi. Qoida berilgach, bitta namunaviy gap orqali struktura mustahkamlanadi. Modernizatsiyalangan deduktiv metodning muhim jihati shundaki, u qisqa vaqt ichida tizimli bilim beradi. Ayniqsa, imtihonga tayyorgarlik yoki yuqori bosqich o'quvchilari bilan ishlashda bu yondashuv samarali hisoblanadi. O'quvchi qoida va strukturani aniq model sifatida o'zlashtiradi, vizual sxemalar esa uzoq muddatli xotirani qo'llab-quvvatlaydi.

Raqamli texnologiyalar orqali ham ingliz tili grammatikasini o'rgatish samarali hisoblanadi. So'nggi yillarda ingliz tili grammatikasini o'rgatishda raqamli texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Onlayn platformalar (masalan, Quizlet, Kahoot, Wordwall), mobil ilovalar va sun'iy intellekt vositalari o'quv jarayonini interaktiv, individual va o'z-o'zini nazorat qilishga mos shaklga keltirishga imkon beradi. Raqamli vositalar bir necha jihatdan samarali hisoblanadi. O'quvchilar dars jarayonida faqat tinglovchi bo'lib qolmay, turli interaktiv vazifalarni bajaradilar: testlar, mashqlar, tanlash va to'ldirish shaklidagi topshiriqlar orqali grammatikani amaliy kontekstda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, Kahoot platformasida Present Perfect va Past Simple zamonlarini farqlash bo'yicha tezkor viktorina tashkil qilish mumkin. Bu jarayon o'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantiradi. Raqamli platformalar yordamida har bir o'quvchi o'z tezligida va o'z darajasiga mos mashqlarni bajarishi mumkin. Quizlet yoki Wordwall kabi



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

ilovalarda foydalanuvchi qiyinchilik darajasini tanlaydi va xatolar asosida qayta mashq qiladi. Bu o'quvchi ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish imkonini beradi. Texnologik vositalar o'quvchilarga natijani darhol ko'rsatadi, xatolarni aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Masalan, mobil ilovalar grammatik mashqni tugatgach, to'g'ri va noto'g'ri javoblarni ko'rsatadi va izoh beradi. Shu orqali o'quvchi o'z bilimini mustaqil baholashni o'rganadi. Bundan tashqari, texnologiya bilan boyitilgan darslar an'anaviy darslarga qaraganda o'quvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv platformalar o'quvchilarda raqobat, o'zini sinash va tezkor natija olish hissini uyg'otadi, bu esa o'rganishga bo'lgan qiziqishni mustahkamlaydi. Sun'iy intellekt va mobil ilovalar yordamida grammatik mashqlarni o'quvchilar kundalik hayotiy kontekstlarda ham bajarishi mumkin. Masalan, AI yordamida yaratilgan chatbot bilan o'quvchi Present Continuous zamonida real suhbat qilishi mumkin, bu esa grammatikaning amaliy qo'llanilishini oshiradi. Raqamli texnologiyalar asosidagi o'qitish ingliz tili grammatikasini o'rganish jarayonini interaktiv, individual va nazoratli qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning motivatsiyasi va dars jarayonidagi faolligi sezilarli darajada oshadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli vositalarni qo'llash nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki tilni real hayotiy kontekstda o'zlashtirishga yordam beradi.

Spiral yondashuv bu ingliz tili grammatikasini o'rgatishda mavzularni bir martalik emas, balki takroriy va bosqichma-bosqich chuqurlashtirib borish metodikasi hisoblanadi. Uning asosiy g'oyasi shundaki, har bir grammatika mavzusi o'quv jarayonida bir necha bosqichda qayta ko'rib chiqiladi va har safar yangi qiyinchilik yoki kontekst bilan boyitiladi. Shu orqali mavzuni ongli ravishda o'zlashtirish, bilimni uzoq muddatli xotirada mustahkamlash va murakkab kontekstlarda qo'llash imkoniyati yaratiladi. Spiral yondashuvning nazariy asoslari bir necha pedagogik prinsiplarga tayanadi: Takroriylik va mustahkamlash orqali har bir mavzu avval oddiy shaklda, keyin esa murakkab kontekstlarda qayta ko'riladi. Bu prinsip til o'rganishda kognitiv yondashuvga mos keladi, chunki bilim faol qayta ishlanish jarayonida chuqurroq o'zlashtiriladi. Bosqichma-bosqichlik orqali mavzu bir nechta darajada o'tiladi: boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqich. Har bir bosqich oldingisini mustahkamlaydi va yangi darajaga tayyorlaydi. Shu bilan birga o'quvchi o'z bilimini mustaqil tarzda tizimlashtirishni o'rganadi. Kontekstual bog'liqlik bilan esa har safar mavzu yangi nutqiy vaziyat yoki matn ichida qayta ko'riladi. Bu yondashuv grammatikani faqat qoidalar to'plami emas, balki ma'no ifodalash vositasi sifatida o'rganishni ta'minlaydi. Har safar mavzu bilan ishlash jarayonida o'quvchi shakl va ma'noni o'z tajribasida kuzatadi va xulosa chiqaradi, shuning uchun bilimning mustahkamligi oshadi. Masalan, Present Simple zamonini spiral yondashuvda o'rganish jarayoni quyidagicha kechadi:

Boshlang'ich bosqichda o'quvchilarga oddiy ijobiy gaplar bilan



tanishtiriladi:

“I play football every weekend.”

“She likes apples.”

O'rta bosqich:

Keyinchalik shu zamonning savol va inkor shakllari kiritiladi:

“Do you play football?”

“She doesn't like bananas.”

Yuqori bosqich:

O'quvchilar murakkab gaplar va turli kontekstlarda Present Simple'dan foydalanishni o'rganadi:

“I don't eat fast food because I follow a healthy diet.”

“Does he usually go to the library after school?”

Shu tarzda, mavzu bir martalik emas, balki takroriy ravishda chuqurlashtiriladi, har safar yangi qiyinchilik va kontekstlar bilan boyitiladi. Spiral yondashuvning afzalliklari bir qancha. Grammatik bilim barqaror ravishda mustahkamlanadi, murakkab strukturalarni o'rganish jarayoni bosqichma-bosqich sodda va tushunarli bo'ladi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va qoida qo'llash ko'nikmalari rivojlanadi, yangi mavzularni o'rganishda avvalgi bilimlardan samarali foydalanish mumkin bo'ladi. Spiral yondashuv grammatikani o'rganishda tizimli, mantiqiy va samarali metod bo'lib, o'quvchilarga bilimni faqat yodlashdan tashqari, uni amaliy kontekstlarda ongli ravishda qo'llash imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili grammatikasini samarali o'rgatish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Grammatikani faqat qoida sifatida emas, balki kommunikativ vosita sifatida o'rgatish yuqori natija beradi. Maqolada ko'rib chiqilgan kontekstual yondashuv, modernizatsiyalangan deduktiv metod, raqamli texnologiyalar va spiral yondashuv o'quvchilarning bilimni mustahkamlash, motivatsiyasini oshirish hamda grammatikani ongli ravishda qo'llash ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and principles in language teaching (3rd ed.). Oxford University Press.
2. Thornbury, S. (1999). How to teach grammar. Longman.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
4. Bruner, J. S. (1960). The process of education. Harvard University Press.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

5. Chapelle, C. A. (2001). Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing and research. Cambridge University Press.